

OPERATSIYA DAVRIDA HAMSHIRALIK PARVARISHINING XUSUSIYATLARI

Urganch Abu Ali Ibn Sino nomidagi
jamoat salomatligi texnikumi, Tor
mutaxassislik fanlari kafedrasi bosh
o'qituvchisi Mayliyeva Mehribon
Yusupboyevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada operatsiya davrida hamshiralik parvarishining xususiyatlari atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: operatsiya, hamshira, kasalxona

Operatsiya davri – bu bemor operatsiya tayinlangandan keyin bosib o'tadigan ketma-ketlikdagi jarayon bo'lib, o'z ichiga operatsiyadan oldingi, operatsion aralashuv va operatsiyadan keyingi davrdan kasalxonadan chiqquncha bo'lgan davrlarni oladi. Shu jarayon bilan bog'liq hamshira parvarishi operatsiya davridagi hamshira parvarishi deyiladi. O'ziga xosligi bo'yicha 3 bosqichga bo'linadi.

1-bosqich (operatsiyadan oldingi parvarish): operatsiya tayinlangandan, bemorni operatsiya xonasiga ko'chirishgacha bo'lgan vaqt ichidagi hamshira parvarishi. Bu bosqichda asosiy parvarishi bemorni operatsiyaga jismonan, ruhiy va ijtimoiy tayyorlashga yo'naltirilgan bo'ladi.

2-bosqich (operatsiya vaqtidagi parvarish): bemorni operatsiya xonasiga olib borgandan operatsiya tugashi va bemorni operatsiyadan keyingi palataga ko'chirishgacha bo'lgan davrdagi hamshira parvarishi. Bu davrda asosiy parvarish ichki a'zolari olib tashlash yoki korrektsiyalashda davolash muolajalari bilan anesteziya qilishga qaratilgan.

3-bosqich (operatsiyadan keyingi parvarish): operatsiyadan keyingi o'tkir davrdan to kasalxona bo'limida sog'lig'ini tiklash va bemorning oilasi va jamiyatga qaytishigacha bo'lgan davrdagi hamshira parvarishidan iborat. Operatsiyadan keyingi

parvarish narkozdan uygʻonish, stressdan chiqish, jarohatning bitishigacha boʻlgan vaqtdan boshlanib bemorning toʻijtimoiy tiklanishigacha amalga oshiriladi. Operatsiya davridagi hamshiralik parvarishining maqsadi: – Operatsiya qilinadigan bemorda operatsiyadan oldin ogʻriq boʻyicha xavotirlik, hayot taqdiri boʻyicha bezovta boʻlishi tabiiy hol. Shuning uchun operatsiyani qabul qilish uchun ruhiy qoʻllab, qoʻrquvni yengishiga hamda operatsion aralashuvni koʻtarishi uchun jismonan tayyorlanishiga yordam berish kerak. – Operatsiya tufayli organizmga yetkazilgan stressni yengib oʻtishda, organizmga tabiat bergan kuchni namoyon qilib sogʻayib ketishida yordam berish.

Operatsiyadan keyin bemorga toʻshak tayyorlash: palatani shamollatish, funksional karavot tayyorlash, toza choyshab toʻshash, toʻshakni grelkalar yordamida isitish, karavot yonidagi stolchaga lotok, sochiq, suvdon qoʻyib tayyorlash, sunʻiy nafas berish apparatining ishlashini tekshirish, namlangan kislorod berish uchun jihozlarni tayyorlash lozim. Dori moddalarini, qon quyish uchun steril infuzion sistemani, steril shpris va ignalarni, muzli xaltachani, A/Bni oʻlchash apparatini, termometr va elektrsoʻrgʻichni tayyorlab qoʻyish kerak boʻladi. Bemorga toʻliq jismoniy va ruhiy tinchlik, ayniqsa yaxshi uyqu zarur. Operatsiyadan keyin hamshira bemorni obdon nazorat ostiga oladi. Operatsiya bajarilgandan to bemorning mehnat layoqati tiklanguncha bemorni kuzatish uch davrga boʻlinadi. Bemorning hushi toʻliq qaytishi, nafas olishi normallasishi, arterial bosim, puls tiklanishini taʻminlash uchun operatsiyadan keyin qisqa muddatga anesteziolog tomonidan tiklanish palatasida kuzatuv ostida boʻlib, agar intensiv palataga oʻtkazishga koʻrsatma boʻlmasa, umumiy palataga oʻtkaziladi. Narkozdan keyingi 2–3 soat davomida bemorga ichish va ovqat yeyish mumkin emas. Agar bemor qayt qila boshlasa, boshini yonboshga burib, ogʻziga lotok yoki sochiq tutiladi, ogʻiz boʻshligʻidan shilliq, qusuq massalari tozalanadi. Ogʻiz boʻshligʻi nam salfetka bilan artiladi. Tiklanish palatasida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan hayotga tahdid soluvchi asoratlar: nafas yoʻllarining bekilib qolishi, miokard infarkti, yurakning toʻxtashi, qon ketish va nafas yetishmovchiligi.

Bu asoratlar bemor umumiy palataga koʻchirilgandan keyin ham kelib chiqishi

mumkin. Lekin bu asoratlari o'tkazilgan operatsiyaga xos bo'lgan va bemor hayotiga tahdid soluvchi muammo emas. Narkozdan uyg'ongan zahoti bemorga chuqur nafas olish zarurligini va bunday harakatning xavfsizligini tushuntirish kerak. Nafas a'zolari tomonidan asoratlarning oldini olish uchun bemor vaqtivaqti bilan chuqur nafas olishi va chiqarishi, qo'l va oyoqlarni harakatlantirishi kerak, yo'talda jarohat sohasini qo'li bilan ushlab turishi, tizzalarini bukishi lozim. Operatsiyadan keyin bemor bilan suhbatlashib, operatsiya natijalarini aytish, uning qo'rquv va shubhalarini yo'qotish zarur.